ROMAN JANRI: GENEZESI VA NAZARIY YONDASHUVLAR

Teshayeva Fotima Sherbek qizi

Annotatsiya. Tadqiqotda roman atamasining kelib chiqishi, janrning jahon adabiyotidagi shakllanish bosqichlari, Sharq adabiyotida roman janrining o'ziga xosligi hamda roman tafakkuri masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: roman, janr genezisi, roman tillari, realizm, Belinskiy, romaniy tafakkur, epos.

Roman janri nazariyasi va tarixi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni alohida o'rganib bo'lmaydi. Romanning tarixini tadqiq etish uchun avvalo "roman" atamasining kelib chiqishi, janrning o'ziga xos xususiyatlari, manbalari va imkoniyatlarini aniqlash zarur. Janrlarni o'rganish adabiy jarayonni chuqurroq anglash va yozuvchilarning bu jarayondagi shaxsiy hissasini belgilash imkonini beradi, chunki janrda voqelikni badiiy-estetik ifodalashning eng barqaror shakllari mujassam bo'ladi. Roman bu jihatdan boshqa janrlardan o'zining keng imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Janr masalalari S. Mirvaliyev [1], I. Sulton [2], D. Quronov [3], H. Umurov [4] kabi olimlarning nazariy asarlarida, shuningdek fransuz olimi P.D. Yue va ingliz tadqiqotchisi Ian Vatt ishlarida turlicha yoritilgan.

"Roman" atamasi va uning kelib chiqishi murakkab va bahsli masala hisoblanadi, shu sababli u hanuz to'liq o'z yechimini topmagan. Asosan ikki xil qarash mavjud: biri atamani Roma – Rim so'zidan, ikkinchisi roman tillari bilan bog'laydi [1]. Sovet davri adabiyotshunosligida L. Timofeyev bu atama XII–XIII asrlarda G'arbiy Yevropada roman tillari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan deb ko'rsatadi. Dastlab so'z faqat asar qaysi tilda yozilganini bildirgan, keyinroq esa janr nomiga aylanib, katta hajmli epik asarlarga nisbatan qo'llana boshlagan. Fransuz filologi E. Littre 1863-yilda chop etilgan lug'atida atamani eski roman tillarida yozilgan, real yoki afsonaviy voqealarni tasvirlovchi asar sifatida, shuningdek hayratomuz voqealar orqali o'quvchida qiziqish uyg'otadigan nasriy afsonaviy tarix sifatida izohlagan. P. Deks Littre ta'rifini eskirgan deb hisoblab, fransuz tilida "roman" dastlab eski til emas, balki yangi xalq tilida, lotin tilini bilmaydigan oddiy xalq va ayollar uchun yozilgan asarni bildirgan, degan fikrni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, Fransiyada bu so'z XII asrdan asarlar sarlavhasida uchray boshlagan, XV asrga kelib esa hikoya tarzidagi badiiy asarni anglata boshlagan. Yue romanni ilk bor tarixiy jihatdan, klassitsizm nuqtayi nazaridan tadqiq etgan [5].

Shunga qaramay, XII–XIII asrlardagi asarlarni zamonaviy roman bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Roman de Brut" she'riy shaklda yozilgan, atama esa janrni emas, asar roman tilida bitilganini anglatgan. 1165-yilda yaratilgan "Troya haqida roman"da ham syujet, kompozitsiya, xarakterlar to'qnashuvi va epik ko'lam jihatidan bugungi romanga xos belgilar yo'q edi: unda inson taqdiri emas, devlar, xudolar va ritsarlarning sarguzashtlari tasvirlangan, tarixiy bayon esa badiiy ifodadan ustun turgan. Shu sababli bu bosqich janrning endi shakllana boshlagan davri sifatida baholanadi. Roman janrining shakllanishida roman tillarining vujudga kelishi va burjua sinfining paydo bo'lishi muhim rol o'ynagan: ijtimoiy o'zgarishlar real hayotiy muammolarni badiiy aks ettirishni talab qilgan, mavjud janrlar esa bunga yetarli emas edi. Antik davr romanlari esa jamiyat ehtiyojlariga to'liq javob bera olmagani uchun "Iliada" va "Odisseya" kabi shuhrat qozonmagan. Ingliz tilidagi "roman" va "novel" atamalari orasidagi farq asosan shakliy xarakterga ega; "novella" janri XIII asrdan Italiyada paydo bo'lib, Bokkachchoning "Dekameron"i bilan rasmiylashgan. Fransiyada Antuan de La Salning "Kichik Jan de Sentra" romani yangi mavzu va g'oyani olib kirib, janr taraqqiyotida muhim o'rin egalladi; shu davrdan romanlar nasrda ham yozila boshladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Littrening izohlari yetarlicha to‘liq emas: atama saqlanib qolgan bo‘lsa-da, unga yuklangan ijtimoiy, siyosiy va estetik vazifalar jamiyat taraqqiyoti, inson xarakteri va psixologiyasining o‘zgarishi bilan kengayib borgan. Shunga qaramay, Uyg‘onish davri va o‘rta asrlarda yaratilgan romanlar janr asoslarini yaratishda katta rol o‘ynagan. XV–XVI asrlarda bosma kitob ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi roman rivojining ikkinchi bosqichini boshladi. Servantesning “Don Kixot”i Uyg‘onish davrining eng mukammal romani sifatida XVII asr romanlariga yo‘l ochdi. Pol Lafargning ko‘rsatishicha, K. Marks Servantes va Balzakni romannavislar orasida eng yuqori baholagan, “Don Kixot”da esa o‘lib borayotgan ritsarlik eposini ko‘rgan [6]. Belinskiy ham bu asarni romanning ideal yo‘nalishiga zarba berib, uni voqelik tomon burgan asar sifatida qadrlaydi.

Roman taraqqiyotining uchinchi bosqichida “roman” atamasi sevgi va sarguzashtlarga asoslangan badiiy nasriy asar ma’nosida ham qo‘llana boshladi. XVI–XVII asrlarda poeziya va proza o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchayib, prozaning mavqei sezilarli oshdi. Shu tariqa roman asta-sekin she’riy shakldan nasriy shaklga o‘tib, o‘zining mustaqil estetik tabiatini topa bordi. Bu jarayon janrning faqat shakli emas, mazmuni va vazifasi ham o‘zgarganini ko‘rsatadi: roman endi o‘tmish voqealarini sanab o‘tish vositasi emas, balki zamonaviy hayot va inson taqdirini tadqiq etuvchi epik shaklga aylana bordi.

XVIII asrgacha romanlar asosan afsonaviy va fantastik sarguzashtlarga tayangan bo‘lsa, aynan shu asrdan boshlab inson obrazi markaziy o‘rinni egalladi, shuning uchun bu davr haqiqiy ma’nodagi roman shakllanishi bosqichi hisoblanadi. D. Defoning “Robinzon Kruzo” (1719) romani shu davrning mashhur namunasidir. Trilogiyaning faqat birinchi qismi ommalashgan; asarda XVIII asr qarashlariga mos “tabiiy odam” tushunchasi ilgari surilib, qahramonning ibtidoiy holatdan burjua madaniyatigacha bosib o‘tgan yo‘li tasvirlanadi [7]. Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi mamlakatlarda inqilobiy ruh va milliy uyg‘onishning kuchayishi adabiyotda ham inson va tarixiy voqealarga e’tiborni oshirib, realizmga asoslangan romanlarning ilk namunalarini yuzaga keltirdi. XIX asr ikkinchi yarmida esa shaxs va jamiyat munosabatlari asosiy mavzuga aylandi, voqeani bayon qilishdan insonning ichki dunyosi va psixologiyasini ochishga o‘tildi. Bu jihatlar Pushkin, Lermontov, Tolstoy va Dostoyevskiy romanlarida to‘la ifodasini topdi.

XIX asr rus realistik romanlari jahon adabiyotida yangi bosqichni boshladi. Bu davrda romantizm ham muhim rol o‘ynadi: uning ijobiy jihatlari romanga singib, epik poeziyaga xos qahramonlik, hayot-mamot kurashi va xarakter shakllanishi hayotiylik bilan uyg‘unlashdi. Belinskiy ta’biri bilan aytganda, hayot poeziyasi hayot prozasiga aylandi. Kapitalistik munosabatlarning kuchayishi, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik o‘rtasidagi keskin kurashlar adabiyotdan yangi, kengroq shaklni talab qildi va bu vazifani roman uddaladi. Belinskiy “Poeziyaning xil va turlarga bo‘linishi” maqolasida romanni epik dostondan keng va qudratli janr deb hisoblaydi: roman real odamlar va konkret hayotni tasvirlaydi, unda oddiy kishi, hatto oddiy ayol ham markaziy qahramon bo‘la oladi, qadimgi eposda esa podsholar, yarim xudolar va qahramonlar tasvirlangan. Uning fikricha, zamonamizning eposi romandir: eposning asosiy xususiyatlari unda ham bor, biroq afsonaviy o‘lchovlar va xudolar o‘rnini kundalik hayot hodisalari egallab, ular badiiy umumlashtirilib tip darajasiga ko‘tariladi [8]. Belinskiyga ko‘ra, chinakam roman Valter Skottdan boshlanadi, faqat Servantesning “Don Kixot”i bundan istisnodir.

Rus realistik romanining jahon adabiyotiga ta’siri alohida e’tiborga loyiq. Pushkin, Lermontov, Gogol, Dostoyevskiy, Turgenev, Goncharov, Chernishevskiy, L. Tolstoy va Gorkiy yaratgan romanlar jahon romanchiligi taraqqiyotida muhim o‘rin tutdi, G‘arbiy Yevropa va butun jahon romanchiligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Belinskiy ta’kidlaganidek, roman Valter Skott asarlari bilan yuksak san’at darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, rus yozuvchilari uni eng yuksak cho‘qqilarga olib chiqdi. Shu bois roman

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

janrining taraqqiyoti romantizm va realizm kabi badiiy metodlarning vujudga kelishi va rivoji bilan bevosita bog‘liq. Bu kuzatishlar o‘zbek romanchiligini jahon adabiy jarayoni bilan aloqada o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Sharq adabiyotida roman janrining shakllanishi o‘ziga xos yo‘l tutgan. Bu Sharq xalqlarining boy og‘zaki ijodi, epik dostonlari va yozma adabiyoti bilan bog‘liq. “Roman” termini XIX asrgacha Sharq adabiyotlarida alohida janr sifatida uchramaydi; G‘arbda “roman” deb atalgan asarlarga ma’no jihatidan “doston”, “qissa”, “hikoya”, “noma” kabi janrlar yaqin bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida ham shu holat kuzatiladi. Rus va qardosh xalqlar romanchiligini o‘rganmasdan turib, o‘zbek romanining vujudga kelishi va taraqqiyotini anglab bo‘lmaydi, chunki o‘zbek romani shakllanishida ichki omillar bilan birga jahon va rus romanchiligining ta’siri ham muhim bo‘lgan. Romanning asosiy negizi realizm bo‘lib, uning markazida insonning hayoti, kurashi, orzu-umidlari va taqdiri turadi.

Roman mohiyatiga oid fikrlar A. Ulug‘ov, T. Boboyev, D. Quronov, H. Umurov asarlarida hamda D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyevalar hammualliflikdagi “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da bayon etilgan. Roman nazariyasiga oid dastlabki alohida monografiya 1991-yilda “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari adabiyotidagi roman janrini tipologik o‘rganish” nomi bilan chop etilgan [10]; mustaqillikdan oldin ham roman haqidagi nazariy qarashlar qisman Fitratning “Adabiyot qoidalari”da uchraydi. Odatda roman hajmining kattaligi, hayotning keng tasviri va qahramon hayotidagi katta davrni qamrab olishi bilan izohlanadi. Biroq hajm jihatidan qissadan farq qilmaydigan, qisqa davrni qamragan romanlar ham mavjud, shu bois bu belgilar yetarli emas. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”ga ko‘ra, romanni janr sifatida belgilovchi asosiy xususiyatlar muammo, romaniy qahramon va romaniy tafakkurdir [9].

Roman tafakkuri badiiy tafakkurning eng murakkab shakllaridan bo‘lib, voqelikni yaxlit anglashga yo‘naltirilgan. Unda hayot hodisalari yuzaki emas, ichki mohiyati, o‘zaro bog‘liqligi va ziddiyatlari bilan tahlil qilinadi, voqelik manfiy va musbat tomonlarining birligida ko‘rsatiladi. Inson, jamiyat va tarix o‘rtasidagi murakkab munosabatlar uzviy yoritilib, individual taqdir umumijtimoiy jarayonlar bilan bog‘lanadi hamda badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘tariladi. Insonning ichki dunyosi va ma’naviy kechinmalari roman tafakkurining ajralmas qismi bo‘lib, yozuvchidan voqelikka yangicha nigoh, mustaqil badiiy konsepsiya va aniq estetik pozitsiyani talab etadi. Shu jihatdan roman tafakkuri nafaqat tasvir vositasi, balki hayotni falsafiy idrok etish shakli hamdir.

Xulosa qilib aytganda, roman janri tarixiy, ijtimoiy va estetik omillar ta’sirida murakkab yo‘lni bosib o‘tgan: o‘rta asrlardagi afsonaviy-sarguzasht asarlardan XVIII asrda inson taqdirini markazga qo‘ygan romangacha, XIX asrda esa realistik romangacha. Roman o‘zining keng epik ko‘lami, inson, jamiyat va tarix munosabatlarini umumlashtirish imkoniyati bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Janrning nazariy asoslarini o‘rganish o‘zbek romanchiligi taraqqiyotini va uning jahon nasri an’analari bilan aloqasini chuqurroq tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969. – B. 10.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 316 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 228 b.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 264 b.
5. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan ziyosi, 2023. – B. 88.
6. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 242.
7. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – B. 9.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

8. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1955. – B. 175.
9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 258.
10. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari adabiyotidagi roman janrini tipologik o‘rganish. – Toshkent: Fan, 1991. – 272 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.